

# COLLECTION

Innovation, integration and modern  
problems in the scientific activities of young  
researchers and students: theory and  
practice

www.d-pressa.com

31  
MARCH



Jizzakh, Uzbekistan

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF  
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN  
NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE  
JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young  
researchers and students: theory and practice collection of materials of the  
international scientific and practical conference on the topic

(March 31, 2026)

Jizzakh-2026

**Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young researchers and students: theory and practice** – Jizzakh: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, March 31, 2026, 990 pp.

**Editors in charge:** Ass.prof. Soy M.P.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

## KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH BO‘YICHA GERMANIYA TAJRIBASI VA UNING O‘ZBEKISTONDAGI TADBIQI

**Isomiddinova Shahina G‘ayratjon qizi**

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi*  
[shahinaisomiddinova108@gmail.com](mailto:shahinaisomiddinova108@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha Germaniya tajribasi va uning O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda rivojlangan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati kambag‘allikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega ekani yoritilgan. Germaniyada kambag‘allikka qarshi kurashishda qo‘llanilayotgan asosiy mexanizmlar ko‘rib chiqilgan. Germaniyada sanoatni rivojlantirish va eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosat kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Umuman olganda, Germaniya tajribasi mamlakatimizda samarali ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** Kambag‘allik, kambag‘allikni qisqartirish, Germaniya tajribasi, ijtimoiy himoya, dual ta‘lim tizimi, bandlik, iqtisodiy siyosat, innovatsiyalar, eksportga yo‘naltirilgan sanoat, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy sug‘urta, O‘zbekiston tajribasi.

### KIRISH

Xorij tajribalar kambag‘allikni qisqartirishda katta ahamiyatga ega, chunki ular boshqa mamlakatlarda amalga oshirilgan muvaffaqiyatli strategiyalar va siyosatlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Xorij tajribalari mamlakatlarga o‘z sharoitlariga mos yondoshuvlarni joriy qilishda yordam beradi.

Xorij tajribalarining ahamiyati orqali samarali siyosatlarni o‘rganish va tatbiq etish, innovatsion yechimlar va texnologiyalarni joriy etish, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashish shular jumlasidandir.

### ASOSIY QISM

Germaniyaning kambag‘allikni qisqartirishdagi tajribasi bir nechta muvaffaqiyatli ijtimoiy va iqtisodiy siyosatlarga asoslanadi. Ular orqali Germaniya o‘zining ijtimoiy tenglikni ta‘minlashga va kambag‘allikni kamaytirishga erishgan. Germaniya kambag‘allikni qisqartirishda samarali ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yuritgan davlatlardan biri bo‘lib, bunda ijtimoiy himoya, ta‘lim, sanoatni rivojlantirish va innovatsiyalar muhim rol o‘ynaydi.

#### 1.1-jadval

#### Germaniyaning tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash afzalliklari

Yo‘nalish	Germaniya tajribasi	O‘zbekistonda qo‘llash afzalliklari	Erishilgan natijalar (Germaniya tajribasida)
Ijtimoiy himoya tizimi	Keng qamrovli ijtimoiy sug‘urta tizimi (tibbiy,	Ijtimoiy sug‘urtani kuchaytirish, aholini kengroq qamrab olish	Germaniyada ishsizlik darajasi 5% atrofida ushlab turiladi

	pensiya, ishsizlik sug'urtasi)		
Sanoatni rivojlantirish va eksport siyosati	Kichik va o'rta biznesni qo'llab quvvatlash, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot	Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlash va eksport hajmini oshirish	Germaniya Yevropadagi eng yirik eksportchi davlatlardan biri
Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik	Dual ta'lim tizimi – nazariy va amaliy ta'lim uyg'unligi	Kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish, ish beruvchilar bilan hamkorlik qilish	Ishlab chiqarish sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi muammosi hal qilingan
Ish haqi va mehnat bozori	Minimal ish haqi tizimi va qat'iy mehnat qonunchiligi	Ish haqi va bandlik siyosatini takomillashtirish, ishchilarning huquqlarini himoya qilish	Odamlarning turmush darajasi yuqori, kambag'allik darajasi past
Innovatsiyalar va texnologik rivojlanish	Fan va texnologiyani rivojlantirishga katta investitsiyalar	Innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish	Germaniya texnologik innovatsiyalar bo'yicha dunyoning yetakchi davlatlaridan biri
Qishloq xo'jaligini rivojlantirish	Yevropa Ittifoqining subsidiyalar tizimi orqali fermerlarni qo'llab-quvvatlash	Fermerlarga davlat yordamini kuchaytirish, agroklasterni rivojlantirish	Germaniya oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qiluvchi asosiy davlatlardan biri

Germaniyaning kambag'allikka qarshi kurashish tajribasi O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy himoyani ta'minlash uchun muhim model bo'lishi mumkin. Xususan, ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirish orqali aholining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mumkin.

Dual ta'lim tizimini joriy etish orqali yoshlarning kasbiy malakasini oshirish va bandlikni yaxshilash mumkin. Eksportga yo'naltirilgan sanoat siyosatini amalga oshirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin. Innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash orqali zamonaviy iqtisodiyotni shakllantirish mumkin.

Germaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli strategik rejalashtirish va kuchli ijtimoiy siyosat orqali kambag'allik darajasini sezilarli darajada kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin. O'zbekiston bu tajribadan samarali foydalanib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirishi mumkin.

Yuqori darajadagi ta'lim tizimi orqali Germaniya ta'lim tizimi malakali ishchi kuchi yaratishda muhim rol o'ynaydi. Ta'limni kengaytirish va barcha yosh guruhlariga ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, aholining ijtimoiy va iqtisodiy

jihatdan yanada rivojlanishini ta'minlaydi. Bu, ayniqsa, kambag'allarni iqtisodiy imkoniyatlardan foydalana olishlari uchun yordam beradi.

Mehnat bozorini tartibga solish bilan Germaniyada mehnat bozorida faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlar va davlat o'rtasida o'zaro hamkorlik mavjud. "Kurzarbeit" (ish vaqtini qisqartirish) kabi chora-tadbirlar yordamida ishchilarni ish joylarida saqlab qolish va ularning daromadlarini doimiy ravishda qo'llabquvvatlash amalga oshiriladi.

Kam daromadli oilalar uchun yordam dasturi orqali esa Germaniyada "sozialhilfe" (ijtimoiy yordam) va "Hartz IV" dasturi orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar mavjud. Bu tizimlar kam daromadli oilalarga ma'lum bir moliyaviy yordam beradi, shuningdek, ularni mehnat bozoriga qaytarishga yordam beradigan kasb-hunar o'qitish dasturlarini taqdim etadi. Germaniyada uy-joy narxlarini barqarorlashtirish va arzon uy-joylar qurish orqali kambag'allikni qisqartirishga harakat qilinadi.

Ijtimoiy uy-joy qurilishi va ularni arzon narxlarda taqdim etish, oilalarning yashash sharoitlarini yaxshilash va kambag'allikni kamaytirishga yordam beradi. Germaniya soliq tizimi orqali daromad taqsimotining adolatli bo'lishini ta'minlaydi. Kambag'allikni kamaytirish uchun soliqlarni progressiv tarzda belgilash, yuqori daromadli shaxslar uchun ko'proq soliq olish va kam daromadli oilalarga soliqlarni kamaytirish orqali ijtimoiy tenglikni oshirishga erishiladi<sup>84</sup>.

Germaniya tajribasi kambag'allikni qisqartirishda kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunda iqtisodiy, ijtimoiy, mehnat va soliq siyosatlari birgalikda ishlaydi, bu esa ijtimoiy tenglik va farovonlikni ta'minlashda samarali bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.K.Zaripov BuxDU tadqiqotchisi Kambag'allikni qisqartirishning ilg'or xorijiy tajribalari 2024y
2. O.M.Jumayev Kambag'allik tushunchasini tushunishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati 2024y
3. Y. Axmedova Innovatsion iqtisodiyotda bandlikni takomillashtirish masalalari 2024y
4. O.M.Jumayev Kambag'allik tushunchasini tushunishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati 2024y
5. <https://renessans-edu.uz/>
6. <https://namdu.uz/>
7. Цой М. П., Худояров Р. Т. Рашидов АР ПРОДВИЖЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ //Компьютер ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami– Jizzax: O'zMU Jizzax filiali. – 2022.
8. Цой М. П., Ибрагимов З. Т. ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 339-342.

<sup>84</sup> B.K.Zaripov BuxDU tadqiqotchisi Kambag'allikni qisqartirishning ilg'or xorijiy tajribalari 2024y

9. Цой М. Развития сферы услуг в Узбекистане: тенденции и перспективы //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 73-86.
10. ЦОЙ М. РОЛЬ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В ВОПРОСАХ СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ И СОЗДАНИЯ ДОСТОЙНЫХ РАБОЧИХ МЕСТ–МИРОВОЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
11. Абдуназаров С. А., Цой М. П. Реформирование системы образования Республики Узбекистан //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2016. – №. 10-6. – С. 14-17.
12. Цой М. П. Экономика Узбекистана и роль развития сферы услуг //Экономика и социум. – 2023. – №. 5-2 (108). – С. 1272-1279.
13. Цой М. П., Носирова С. С., Мухтарова Д. Р. ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ СИСТЕМЫ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 420-424.
14. Bo'ltakov S. O 'ZBEKISTONDA BALIQCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ISTIQBOLLARI //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 565-567.
15. Bo'ltakov S. BALIQCHILIKDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI VAHOLASH MEZONLARI //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 366-371.
16. Bo'ltakov S. et al. TURIZM SOHASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI ANAMIYATI //Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 60-62.
17. Bo'ltakov S. Innovatsion Usulda Baliq Yetishtirishning Iqtisodiy Samaradorligini Oshirish Yo 'llari (Sirdaryo Tumani Misolida) //Green Economy and Development. – Т. 3. – №. 9. – С. 666837.
18. G'aybullayev Sarvar O. et al. O 'ZBEKISTONDA ISTE'MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO 'NALISHLARI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 119-125.
19. Akramovich N. A., Sarvar G., Yassim H. THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 95-99.
20. Гайбуллаев С., Пулатова М. Ish haqi va mehnat munosabatlari //Новый Узбекистан: успешный международный опыт внедрения международных стандартов финансовой отчетности. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 370-372.
21. Sarvar G., Sirojiddin S., Xushnudbek P. FACTORS AFFECTING LABOR RELATIONS AND ITS WAGE //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 126-129.
22. G'aybullayev S. et al. RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – С. 86-89.